

Amir Temur

Temur, Temurbek

[1336-yil 9-aprel Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xoja ilg‘or qishlog‘i (hozirgi Yakkabog‘ tumani) - 1405-yil 18-fevral O‘tror shahri, Samarqandda dafn etilgan]
(1370-1405)

To‘liq ismi Amir Temur ko‘ragoniy ibn Amir Tarag‘ay ibn Amir Burqul bo‘lgan bu buyuk tarixiy shaxs o‘rtasining yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli va markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysidir. Yozma manbalarda u Temurlang, Yevropa adabiyotida Tamerlan nomlari bilan ta‘riflanadi. Amir Temurning onasi Takinaxotun buxorolik mashhur faqih Toj ash-sharia (shariat toji) taxallusi bilan mashhur bo‘lgan Ubaydulla ibn Mas`udning avlodni (1350-yil vafot etgan) edi. Uning otasi Amir Tarag‘ay barlos urug‘ining oqsoqolilaridan bo‘lib, Chig‘atoj ulusining e‘tiborli beklaridan hisoblangan. Uning ajdodlari esa Chig‘atoj saroyi mulozimlari qatoridan o‘rin tutgan. Ular Kesh va Nasaf viloyatida o‘z mulklariga ega bo‘lgan va bu yurtda hokimlik qilgan. Shu boisdan Amir Temurning otasi Amir Tarag‘aybek ham yilda bir marotaba Ili daryosi bo‘yida xon tomonidan chaqiriladigan el-yurt bek va biylarining umum qurultoyiga taklif etilar va bunday yig‘inlarda qatnashardi. Amir Temurning yoshligi ona yurti Keshda kechdi. Yetti yoshga to‘lgach, otasi uni o‘qishga beradi. U yoshlik chog‘laridanoq chavandozlik va ovga ishqiboz bo‘lib, kamondan nishonga o‘q uzish, ot choptirish turli mashq va harbiy o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lishni yoqtirar edi. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir sifatida voyaga yetadi. Uning atrofida bolalikdagi do‘satlari va maktabdoshlari to‘planishib, birqalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, asta-sekin navkar bo‘lishib, harbiy guruhga birlashib shakllana borishadi. Bu guruh orasida Abbas Bahodir, Jahon Shohbek, Kimori Inoq, Sulaymon Shohbek, Sayfuddinbek va boshqalar bo‘lgan. Keyinchalik ular Amir Temurning safdoshlariga aylanib, uning qo‘shindan lashkarboshilik darajasiga ko‘tarilganlar. Amir Temur tabiatan og‘ir, bosiq, teran fikrli va idrokli, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo‘lgan. Shu tufayli o‘spirinlik chog‘laridayoq tengqurlaridan sadoqatli do‘satlarni atrofga jalb qila olgan. O‘zining ilk harbiy faoliyatini Amir Temur qo‘l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan. Ularning o‘zaro kurashlarida mahorat va oliyhimmatlik Amir Temurning shuhratini oshirib, uning dong‘i butun Qashqadaryo vodiysi, xususan Kesh viloyatiga yoyilgan. Amir Temur aql-zakovati, shijoati va jasorati to‘g‘risidagi shuhrat uni Movarounnahrning nufuzli amirlaridan avval Joku Barlos, so‘ngra Amir Qazog‘on (1346-1358) bilan yaqinlashtirgan. Otasi Amir Temurni avval (1352) Amir Joku Barlosning qizi Turmish Og‘oga uylantiradi. 1362-yilda Amir Temur Qazog‘onning nabirasi, Amir Husaynning singlisi Uljoy Turkon Og‘oni o‘z nikohiga oladi. Keyingi nikoh tufayli Balx amiri bilan bog‘langan qarindoshlik aloqalari shubhasiz Amir Temur bilan Amir Husayn o‘rtasidagi ittifoqni yuzaga keltirdi va Mo‘g‘ullarga qarshi jiddiy kurash boshlandi.

Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo‘lidagi dastlabki harakati XIV asrning 60-yillar boshlaridan boshlangan. XIV asrning 50-yillari oxirida Movarounnahrda amirlarning o‘zaro kurashi kuchayib, Amir Qazag‘on o‘ldirildi. Oqibatda mamlakatda siyosiy parokandalik vujudga kelib ulus bir qancha mustaqilbekliklarga bo‘linib ketadi. Yettisuv va Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilayotgan mo‘g‘ul xonlari Movarounnahrdagi siyosiy vaziyatdan foydalani, bu yerda o‘z hokimiyatini o‘rnatishga harakat qiladilar. Jeta xonlaridan Tug‘luq Temur va uning vorisi Ilyosxo‘ja 1360-1361, 1365-yillarda Movarounnahrga bir necha bor bostirib kiradilar. Biroq Movarounnahr aholisi mog‘ullarga qarshi kurashga jur‘at eta olmaydilar. Kesh viloyatining hukmdori Hoji Barlos Xurosonga qochadi. Mana shunday og‘ir pallada Amir Temur maydonga kiradi. Kuchlar teng emasligini hisobga olgan Amir Temur 1360-yilning boshida Tug‘luq Temur tomonidan Keshga yuborilgan beklar bilan kelishadi. Sharoit taqozosi bilan xon xizmatiga o‘tib, uning yorlig‘i bilan o‘z viloyatining dorug‘asi etib tayin etiladi. Biroq, ko‘p o‘tmay Movarounnahrning humdori etib tayinlangan Ilyosxo‘ja bilan Amir Temur murosasi kelishmay qolishi natijasida 1361-yilning oxirida mamlakatni tark etib, Xorazmga yo‘l oladi. U

yerda amir Husayn bilan uchrashadi va mog‘ullarga qarshi kurashda ikkovlon birlashib, kuch to‘plashga kirishadi. Dastlab ular, Tug‘luq Temurxonning farmoniga binoan Amir Temurni ta‘qib qilishga kirishgan Xiva dorug‘asi To‘qol (Tavakkal) bilan jang qildilar. So‘ngra 1362-yilning kuzida Seistonda viloyat hukmdori Malik Qutbiddinning tarafida turib, mekroniylar bilan bo‘lgan to‘qnashuvda, Amir Temur o‘ng kifti va o‘ng oyog‘idan jarohatlandi. Nihoyat, Ilyosxo‘ja boshliq Jeta lashkalari bilan bir necha marta jang qilib, mo‘g‘ullarni Movarounnahr hududidan 1364-yil oxirida quvib chiqarishga muvaffaq bo‘ladi. Biroq, Ilyosxo‘ja 1365-yili bahorida Turkiston ustiga qo‘sishin tortadi. Toshkent va Chinoz o‘rtasida sodir bo‘lgan “Loy jangi”da amir Husaynning hiyonati oqibatida Amir Temur qo‘sishinlari mag‘lubiyatga uchraydi. Samarqandni o‘z qo‘liga olgan mo‘gullarga qarshi xalq ko‘tarilib, shahar mudofasini o‘z qo‘liga olgan sarbadorlar mog‘ullarni mamlakatdan butunlay haydab chiqardi. Bundan xabar topgan amir Husayn tomonidan sarbadorlar boshliqlari qatl ettiriladi. Natijada, 1366-yili amir Husayn Movarounnahrda hokimiyatni o‘z qo‘liga oladi, ammo ko‘p o‘tmay amir Husayn va Amir Temur o‘rtasidagi munosabat keskinlashib ochiqdan-ochiq nizoga aylanadi. Ular o‘rtasida 1366-70-yillarda bir necha bor to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tadi. Amir Husaynga qarshi Balxga yo‘l olayotgan Amir Temur Termiz yaqiniga kelganda makkalik shariflardan Sayyid Baraka Amir Temur faoliyatini qo‘llab quvvatlab, unga oliy hokimiyat ramzi katta nog‘ora – tabl bilan yalov - bayroq tortiq qiladi. 1370-yili 10-aprelda Balx shahri Amir Temurga taslim bo‘ladi. Amir Husayn qatl etiladi. Bu g‘alabadan so‘ng Amir Temur chingiziyardan bo‘lgan Qozonxonning qizi Saroymulkxonimni o‘z nikohiga oladi va “ko‘ragon” unvonini olishga tuyassar bo‘ladi. Garchi saltanat taxtiga, an‘anaga ko‘ra dastlab nomigagina Suyurg‘at mish (1370-1388), so‘ngra uning vafotidan keyin Sulton Mahmud (1388-1402) o‘tqazilgan bolsa-da, amalda markaziy hokimiyatni Amir Temurning o‘zi boshqarar, viloyatlardagi hokimiyatni o‘g‘illari, nabiralari va yaqin amirlari orqali idora qilardi.

1372-yilda Amir Temur Xorazmga yurish qilib, uni egallaydi. Biroq tarixiy voqealarning taqozosi bilan Amir Temur Xorazmga besh marta harbiy yurish qildi. Xorazm 1388-yilda uzilkesil Temur davlatiga qo‘sildi. Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda tarqoqligiga va o‘zaro nizolarga zarba berib, Sirdaryo vohasidan to Orol dengizigacha bo‘lgan yerlarda yashovchi xalqlarni yagona davlat tasarrufida birlashtiradi. Amir Temur davlatiga Mog‘iliston davlatining doimiy hujumini bartaraf etish uchun yigirma yil (1371-1390) mobaynida Mog‘ulistonga yetti marta yurish qilib, Mo‘g‘ul hukmdorlari Anqoto‘ra va Qamaruddin ustidan g‘alaba qozondi. Shu zaylda Amir Temur Movarounnahr va Xorazmda hukm surgan tarqoqlikka, o‘zaro nizo va Mo‘g‘uliston tomonidan bo‘lib turgan tazyiqqa chek qo‘ydi. Sohibqiron bu bilan qanoatlanmay, qo‘shti davlatlar ustiga yurish qilib, ularni o‘ziga bo‘ysundirish va markazlashgan buyuk saltanat barpo etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Sohibqiron harbiy yurishni Xurosondon boshlaydi. 1381-yili Amir Temur Hirotni egallaydi. Saraxs, Jom va Qavsiya shaharlari jangsiz taslim bo‘ladi. 1381-1384-yillar davomida Eronning katta qismi bo‘ysundiriladi. Avval (1381) Kalot, Turshiz va Sabzavor, keyin (1383) Seistonning Zireh, Zova, Farah va Bust qal‘alari, 1384-yilda esa Astrobod viloyati va Ozarbayjonning Omul, Sori, Sultoniya va Tabriz shaharlari bo‘ysundiriladi. Amir Temur Eron, Ozarbayjon, Iroq va Shom (Suriya) ustiga uch marta lashkar tortdi.

Bu yurishlar tarixda “uch yillik”, ”besh yillik”, ”yeti yillik urush”lar nomi bilan mashhur. Uch yillik (1386-1388) harbiy yurishlar oqibatida Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Van ko‘li atrofidagi yerlar egallandi. Amir Temur shu bilan birga shimoli-g‘arbdan, ya‘ni Oltin O‘rda tomonidan bo‘layotgan tazyiqqa barham berish maqsadida To‘xtamishga qarshi uch marta qo‘sishin tortadi. 1389-yilda Dizakning Achchiq mavzeida, 1391-yili Qunduzcha jangida, 1395-yil Tarak daryosi bo‘yidagi janglarda g‘alaba qozongan, dushman qo‘shinini tormor etdi. Amir Temurning To‘xtamish ustidan qozongan g‘alabasi, faqat O‘rtta Osiyo uchun emas, balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek Rus knyazliklari uchun ham buyuk ahamiyat kasb etgan edi. Shundan so‘ng, Amir Temur Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom (Suriya) ustiga uch marta askar tortadi. U besh yillik (1392-1396) urushi davomida G‘arbiy Eron, Iroqi Ajam va Kavkazni egallaydi. Amir Temurning Hindiston ustiga qilgan g‘azovoti (1398- may- 1399-yil

mart) qariyb o'n bir oy davom etadi. Hindistondan u katta o'lja, shu jumladan 120 ta jangovar fillar bilan qaytadi. O'ljalarning bir qismi qo'shinga tarqatilib, qolgani Samarqand va Kesh shaharlarida olib borilayotgan qurilishlarga ishlatiladi. 1399-1404-yillardagi yetti yillik urush, eng shiddatli va eng yirik janglardan bo'lib, uning oqibatida Shomning Xalab, Kumis, Baalbek, Dimishq (Damashq) kabi yirik shaharlari va Iroqi Arabning Ubuliston o'lkasi bilan Bag'dod, shuningdek Turkiyaning kattagina qismi fath etiladi. Natijada ikki buyuk sarkarda: Sohibqiron Amir Temur bilan sulton Boyazid Yildirimlarning to'qnashuvi muqarrar bo'lib qoladi. Chunki tobora kuchayib borayotgan bu ikki turkiy davlatlarning har biri ikkinchisi uchun nihoyatda kuchli raqibga aylangan edi. Bir tomondan, Yevropa ritsarlariga qaqqhatqich zarba berib, Bolqon yarim oroli bo'ylab, g'arba tomon o'z hududlarini kengaytirayotgan Usmonlilar davlati uchun Amir Temurning markazlashgan kuchli davlatini qaror topishi qanchalik xavfli tuyulsa, Kichik Osiyoda barpo etilgan qudratli Usmonlilar davlatining kuchayishidan Amir Temur ham shunchalik manfaatdor edi. Amir Temur hayot-mamot yo'lida Boyazid Yildirim bilan bo'ladigan jangga qariyb ikki yildan ortiq tayyorlanadi. Nihoyat Rumga yuzlanib, avval Qamoh qal'asini fath etadi, so'ngra Anqara shahrini qamalga oladi. Amir Temur bilan Sulton Boyazid qo'shinlari o'rtasidagi so'nggi va hal qiluvchi jang 1402-yil 20-iyulda Anqara yaqinida Chibukobod mavzeida sodir bo'ladi. Bu jang tarixda "Anqara jangi" nomi shuhrat topadi. Uch kun davom etgan bu jangda Amir Temur g'alaba qozondi. Amir Temur Usmonli turklari davlatini saqlab goldi va Boyazid vorislari muruvvat qo'lini cho'zdi.

Shunday bo'lsa-da, Boyazid ustidan qozonilgan buyuk g'alaba bilan Amir Temurni Fransiya qiroli Karl VI (1380-1422), Angliya qiroli Genrix IV (1399-1413) hamda Kastiliya va Leon qiroli Genrix III (1390-1407) tabriklab, unga o'z muborak nomalarini yubordilar. Chunki Sohibqiron endigina uyg'onayotgan Yevropaga ulkan xavf solib turgan Usmonli turklar davlatiga zarba berib, butun Yevropaning xaloskoriga aylangan edi.

Kichik Osiyodan Samarqandga qaytgan Amir Temur 1404-yilning 27-noyabrida 200 ming qo'shin bilan Samarqanddan Xitoy safariga chiqdi. Biroq Xitoy ustiga yurish Amir Temurning to'satdan vafot etib qolishi (1405-yil 18-fevral) tufayli amalga oshmay qoldi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Amir Temur vafot etganda, uning xotinlaridan to'rtasi – Saroy Mulk xonim, Tuman og'o xonim, Tukal xonim va Ruh Parvar og'o xonimlar hali hayot edilar.

Shuningdek, Amir Temur vafot qilgan vaqtida undan ikki o'g'il, 19 nevara va 15 chevara, jami 36 shahzoda hayot edi. Bulardan tashqari sohibqironning kichik qizi – Sulton Baxt begin va katta qizi – Og'o beginidan tug'ilgan o'gil – Sulton Husayn Mirzo nomli nevarasi ham bor edi. Tarixiy ma'lumotlarning dalolaticha sohibqiron Amir Temur o'n sakkiz marta uylangan. Bundan tashqari u 22 nafar xos kanizaklarini ham o'z shabistoniga mahram qilgan.

Amir Temur 35 yil davomida mamlakatni boshqardi. Ko'pdan-ko'p harbiy yurishlar va jang'u Jadallarni amalga oshirdi. Ko'p mamlakatlar zabit etildi. Oqibatda Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar bo'lgan g'oyat katta hududni qamrab olgan ulkan sultanatni vujudga keltirdi. Bundan tashqari, Kichik Osiyo, Suriya, Misr va Quyi Volga, Don bo'ylari, Balxash ko'li va Illo daryosi, Shimoliy Hindistongacha bo'lgan mamlakatlarni o'ziga bo'ysundirdi. Bu mamlakatlardan Amir Temur katta o'ljar bilan bir qatorda ko'zga ko'rigan olimlar, hunarmandlar va mohir ustalarni Samarqand, Shahrisabz va Buxoroga ko'chirib olib keldi. Bu shahar va qishloqlar obod qilindi. U nafaqat Movarounnahr va Turkistonni obod qildi, balki bo'ysundirilgan mamlakatlarning shaharlarini ham qayta qurdirdi. Bag'dod, Darband va Baylakon shaharlarini qayta tikladi. Karvon yo'llarida rabotlar, qal'alar, ko'priklar, shaharlarda masjid va madrasalar hamda bog'-u bo'stonlar barpo etdi. Eng muhimi Eron, Ozarbayjon va Iroqdagi tarqoqlik va boshboshoqlikka barham berib, Sharq bilan G'arbni bog'lovchi qadimiy karvon yo'llarini tikladi. Bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga xalqlar va mamlakatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qo'shdi. Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar o'rnatdi. A mir Temurning harbiy yurishlari, jang-u Jadallarining oqibatlariga baho berilar ekan, shuni ta'kidlash kerakki, uning faoliyati qo'yilgan maqsad va rejalarini jihatidan ikki bosqichga

bo‘linadi. Birinchi bosqich (1360-1386)da Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzish yo‘lida kurashdi. Amir Temurning bu davrdagi faoliyati O‘rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti taraqqiyoti yo‘lida shubhasiz ulkan ijobiy ahamiyat kasb etdi. Amir Temur faoliyatining ikkinchi bosqichi (1386-1405)da olib borilgan “uch yillik”, “besh yillik” va “yetti yillik” harbiy yurishlarni amalga oshirib, Oltin O‘rda, Eron, Iroq, Kavkaz, Kichik Osiyo, Misr va Hindistonni zabit etdi.

Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy san‘ati va davlat boshqarish uslubiga bag‘ishlangan maxsus asar yaratilib, u “Temur tuzuklari” nomi ostida shuxrat topadi. Bu asar shaxsan Temurning og‘zidan yozib olingan deb hisoblanadi. Unda davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toju taxt egalarining yo‘nalishi va vazifalari, vazir va qo‘shin boshliqlarini saylash, sipohlarning maoshi, mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qo‘shin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju-taxt oldida ko‘rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar xususida bayon etiladi. Amir Temur turk, arab va eronliklar tarixini chuqur bilgan. Amaliy jihatdan foyda keltira oladigan har qanqa bilimni qadrlagan. U davlat ishlari uchun hamma narsaning foydali tomonlarini olishga harakat qilgan. Amir Temur hayotligi chog‘ida sultanatni asosan to‘rt qism (ulus)gab o‘lib, o‘g‘il, nabiralariga taqsimlab bergan: Xuroson, Jurjon, Mazondaron va Seyiston (markazi Xirot) Shohruxga, G‘arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armoniston (markazi Tabriz) Mironshohga, Fors, ya’ni Eronning janubiy qismi (markazi Sheruz) Umarshayxga, Afg‘oniston va Shimoliy Hindiston (markazi G‘azna, keyinchalik Balx) Pirmuhammadga suyurg‘ol qilib berilgan. Amir Temur davlati o‘ziga xos tartib qoidalarga asoslangan holda idora qilingan. Amir Temur asos solgan bu davlat Xuroson va Movarounnahrda XVI asr boshigacha mavjud bo‘lib, Shayboniyxon tomonidan tugatilgan. Amir Temur imom Sayyid Barakani o‘zining piri deb bilgan. Sayyid Baraka Temur qilich bilan nimaniki qo‘lga kiritgan bo‘lsa, shularni toat-ibodat hamda vatvolar berib, dugo‘ylik bilan mustahkamlab berishga harakat qiladi.

Amir Temur haqidagi birinchi kitob 1553-yili Florensiya (Italiya)da chiqqan. Italiyalik olim Perondini qalamiga mansub boshqa shu asrda ispan tarixchisi Pero Meksikaning “Buyuk Temur tarixi” degan asari ham chop etildi. 1582-yili Seviliyada mashhur Ispaniya elchisi Klavixoning “Esdaliklar”i nashrdan chiqdi. Ingliz dramaturgi Xristofor Morloning “Buyuk Temur” degan sahna asari ham shu asrda yaratildi. Sho‘rolar tuzumi davrida Amir Temur shaxsi va faoliyatiga adolatsizlik bilan yondashilib, bir yoqlama baho berib kelindi. O‘zbekiston Mustaqillikka erishganidan so‘ng, bunday qarashlarga barham berildi. O‘zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov say-harakati bilan Amir Temurning jahon tarixida tutgan o‘rnini o‘z joyiga qo‘yila boshladi. O‘zbekistonda uning faoliyatini o‘rganishga va uni ommalashtirishga keng yo‘l ochildi. “Sohibqiron Amir Temur shaxsi uning ajdodlari bo‘lmish faqat bizning ema, balki mintaqamizdag‘i barcha xalqlarning butun ma‘rifiyinsoniyatning boyligi”ga aylandi (I. Karimov). Uning nomi O‘zbekistonda abadiylashtirildi. Ko‘plab shahar va qishloqlardagi shoh ko‘chalar, maydonlar, jamoa xo‘jaliklari, maktablar, kinoteatrлar va boshqalar uning nomi bilan ataldi. Islom Karimov tashabbusi va rahnomaligida Toshkent, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlarning markaziy maydonlarida Amir Temurga haykal o‘rnatildi. Toshkentdag‘i Amir Temur hiyobonida Temuriylar davri muzeyi barpo etildi (1996), “Amir Temur” ordeni ta’sis etildi (1996) va Xalqaro Amir Temur jamg‘armasi tashkil qilindi (1995). Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda YUNESKO rahbarligida hazrat Sohibqiron tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi (1996). Amir Temur haqida ikki qismdan iborat badiiy film, spektakllar va she‘riy hamda nasriy asarlar yaratildi.

Ulug‘bek

Muhammad Tarag‘ay
(1394-yil 22-mart, Sultoniy shahri, Eron Ozarbayjoni - 1449-yil 27-oktabr, Samarqand)
(1409-1449)

Ulug‘bek o‘zbek xalqi tarixida buyuk astronom va matematik, davlat arbobi sifatida iz qoldirgan. Shohruxning o‘g‘li, Amir Temurning nabirasidir Sohibqironning “besh yillik yurish”ida (1392-96) Iroqdagagi Mordin qal’asini qamal qilish chog‘ida tug‘ilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida yozishicha, Amir Temur huzuriga chopar kelib Ulug‘bekning tug‘ilgani va munajjimlar bu nevara kelajakda ham olim, ham hukmdor bo‘lishini bashorat qilganlari xushxabarini yetkazadi. Sohibqiron xursandligidan Mordin qal’asi qamalini to‘xtatib, uning xalqiga yuklangan to‘lovni bekor qiladi. Uning o‘z nabirasiga Muhammad Tarag‘ay va Ulug‘bek deb ism qo‘yanini ham munajjimlarning yuqorida bashorati bilan bog‘lash mumkin. Amir Temur Ulug‘bek tarbiyasiga alohida e’tibor bergen va uni davlat ahamiyatiga molik tadbirlarda qatnashtirgan. Klavixoning qayd etishicha, Ulug‘bek bobosining xorijiy elchilarni qabul qilish marosimlarida ishtirot etgan. 1404-yil Konigilda o‘tkazilgan tantanalarda Amir Temur oltita nabirasining (jumladan, Ulug‘bekning) nikoh to‘ylarini o‘tkazgan. To‘yda Sohibqiron Ulug‘bekka Toshkent, Sayram, Yangi (hoz. Taroz), Ashpara va Mo‘g‘ulistonni to Xitoy hududigacha suyurg‘ol qilib bergen. Amir Temur O‘trorda vafot etgan chog‘da Ulug‘bek ham o‘sha yerda bo‘lgan.

Temuriylar o‘rtasida toju taxt uchun kurash boshlangan. O‘trordan qaytgan Shohrux farzandlari - Ulug‘bek va Ibrohim Sultonni amirlar poytaxt Samarqandga kiritmaydilar, ular Buxorodan panoh topishgan. Samarqand taxtini Xalil Sulton egallagan. Xurosonni boshqarib turgan Shohrux Ulug‘bekka dastlab Andxo‘y bilan Shibirg‘onni, keyinchalik Xurosonning Tus, Xabushon, Kalot, Bovard, Naso, Yozir, Sabzavor va Nishopurdan iborat qismini boshqarishni topshirgan. 1410-yil Shohrux Movarounnahrni o‘z tasarrufiga kiritgach, uni idora etishni Turkiston viloyati bilan birga Ulug‘bekka topshirib, Sohibqiron vasiyatini qayta tiklagan. Ulug‘bek yosh (15 yosh) bo‘lgani sababli amir Shohmalik unga homiy etib belgilangan. Lekin Shohmalikning raqibi - O‘trordagi Shayx Nuriddin va Muhammad Jahongirning Hisordagi voliylari 1410- yil bahorida Ulug‘bek va Shohmalikka qarshi chiqqanlar. Shu yilning yozida Shohrux ishtirokida bo‘lgan jangda Shohmalik va Ulug‘bek g‘alaba qilganlar. 1411-yil sentabrda Shohrux Samarqandga kelib, Shohmalikni o‘zi bilan Hirotga olib ketgan va keyinchalik Xorazmga hokim qilib yuborgan (1413).

Shu vaqtidan boshlab Ulug‘bek Movarounnahrni mustaqil idora etishga kirishgan. Shohrux Movarounnahrda boshqa temuriy shahzodalarga ham mulk ajratgan edi. Chunonchi, Hisori Shodmonni Muhammad Sultonning o‘g‘li Muhammad Jahongir mirzoga, O‘zgand viloyatini Umarshayxning o‘g‘li Amirak Ahmadga suyurg‘ol qilgan edi. Biroq ular Ulug‘bekka tobe edilar. 1414-15-yil ular o‘rtasida ixtilof chiqib, Ulug‘bek Amirak Ahmad ustiga qo‘sish tortgan va uni yenggan. Shohrux Amirak Ahmadni Xurosonga chaqirtirib olgan; Qashg‘ar ham to 1428-yilgacha Ulug‘bekka tegishli bo‘lgan. Ulug‘bek o‘z hukmronligi davomida 2 marta yirik harbiy yurish qilgan. Birinchisida 1425-yil Mo‘g‘uliston xoni Shermuhammad o‘g‘lon (1421-1425) o‘zini mustaqil xon deb e’lon qilganda, Ulug‘bek unga qarshi yurish qilib zafar qozongan. Ulug‘bekning 2-yurishi Sig‘noq shahri tomon bo‘lgan. Sirdaryoning quyi havzasini Ulug‘bek tasarrufida edi. Ulug‘bek 1427-yil Sig‘noq yaqinida uning mulkiga tahdid qilgan Baroq o‘g‘lon bilan to‘qnashgan va mag‘lubiyatga uchragan. Dushman Ulug‘bekni ta‘qib qilib, Samarqand ostonalarigacha kelgan. Movarounnahr xavf ostida qolganligi tufayli Shohrux Xurosandan katta lashkar tortib kelib xavfni bartaraf etadi.

Shohrux vafoti (1447, 12 mart)dan keyin Ulug‘bekning katta o‘g‘li Abdullatif voris sifatida Temuriylar hukmdori bo‘lib qoladi. Lekin Shohruxning qattiqqo‘l xotini Gavharshod begin bu haqda o‘z fikriga ega edi. U Shohrux davrida Temuriylarning poytaxti bo‘lib qolgan Hirot taxtiga marhumning 3-o‘g‘li bo‘lmish Boysung‘ur mirzoning o‘g‘li va suyukli nabirasi Alouddavla mirzoni o‘tqazish tarafdori edi. Gavharshod begin Hirot taxtiga Alouddavlan ni o‘tqazganini Ulug‘bekka nisbatan isyon deb qaralmog‘i kerak edi. Shuning uchun Ulug‘bek 1448-yil bahorida Abdullatif bilan birgalikda 90 ming askar bilan Xurosonga kelib, Hirot yaqinida bo‘lgan jangda Alouddavlan tor-mor qiladi. G‘alaba Abdullatifning shaxsiy shijoati va lashkarboshilik iste’dodi tufayli erishilgan bo‘lsa ham, Ulug‘bek fathnomani kichik o‘g‘li

Abdulaziz nomidan e'lon qiladi. Undan tashqari, bobosi Shohrux tomonidan Abdullatifga vasiyat qilingan Hirotdagi Ixtiyoriddin qal'asi va uning ichidagi boyliklarini ham Ulug'bek Abdulazizga beradi. Shundan so'ng Ulug'bek bilan Abdullatif o'rtasidagi munosabat ochiq dushmanlik tusini oladi. Ulug'bek Samarqandda Abdulazizni qoldirib, lashkar bilan katta o'g'liga qarshi jangga yuradi. Abdullatif ham o'z lashkari bilan Amudaryo yoqasiga kelib turadi. Ikkala lashkar ham daryoning 2 sohilida uzoq muddat turib, suvni kechib o'tishga botinmaydi. Bu orada Ulug'bek, Abdulaziz lashkardagi amirlarning oilalarini ta'qib etayotir, - degan xabarni eshitib, Samarqandga qaytib kelishga majbur bo'ladi va shahar aholisining Abdulazizga qarshi isyon ko'targanining guvohi bo'ladi. Tezda shaharni tartibga keltirib, yana Abdullatifga qarshi jangga yo'llanadi, lekin Samarqand yaqinida undan mag'lubiyatga uchraydi. Oradan ko'p o'tmay, Ulug'bek Abdullatif buyrug'i bilan qatl etiladi. Uning jasadi Go'ri Amir maqbarasiga dafn etilgan.

Ulug'bek otasi Shohrux davrida siyosiy hukmdor sifatida ichki va tashqi siyosat bobida birmuncha mustaqil bo'lган. Boshqa davlatlar bilan bevosita savdo va elchilik munosabatlari olib borgan. Ulug'bek davrida Samarqand shahri yanada ravnaq topgan. Shaharda hunarmandchilik, me'morlik, adabiyot, umuman ilm-fan yuksaldi, savdo taraqqiy etdi. Buxoroda (1417), Samarqandda (1420), G'ijduvonda (1432-33) madrasalar va Marvda xayriya muassasalari qurildi. Madrasalarda diniy fanlar bilan birga dunyoviy fanlar ham o'qitildi, ko'proq aniq fanlarga ahamiyat berildi. Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi, Shohizinda va Registon majmualari qurilishlari poyoniga etkazildi. Bundan tashqari, mamlakatda ko'plab jamoat inshootlari (karvonsaroy), tim, chorus, hammomlar va boshqa ham bunyod etilgan.

Ulug'bek O'rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini o'rta asr sharoitida dunyo fanining eng yuqori pog'onasiga olib chiqdi. Uning qilgan eng buyuk ishi - Samarqand ilmiy maktabini o'sha davr akademiyasini barpo etganligi bo'ldi. Bu ilmiy maktabda 200 dan ortiq olimlar faoliyat olib borgan. Ular orasida eng yiriklari Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid Koshiy edi.

Ulug'bekning ilmiy maktabi o'z faoliyatida o'rtaosiyolik mashhur olimlar Muhammad Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abul Abbas al-Javhariy, Ibn Turk al-Xuttaliy, Xolid al-Marvarrudiy, Ahmad al-Marvaziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniylar boshlab bergen ilmiy an'anaga asoslanar edi. Ulug'bek Samarqand yaqinida rasadxona barpo qildi. Ulug'bek akademiyasidagi yirik olim - Ali Qushchini Ulug'bek "Ziji"ning so'zboshisida "farzandi arjumand", ya'ni "aziz farzandim" deydi. Aslida u Ulug'bekning sadoqatli shogirdi bo'lib, "Zij" ustida ishlar poyoniga yetkazilguniga qadar ustoziga yordam bergen. Ulug'bek Samarqandda 2 ta madrasa: biri - Registon ansambl tarkibida va ikkinchisi Go'ri Amir ansambl tarkibida barpo qilgan. Boshqa yirik olimlar qatorida Ulug'bekning o'zi ham bu madrasalarning har birida haftada bir marotaba ma'ruza o'qigan.

Boshqa vaqtini ko'proq astronomik kuzatishlarga, "Zij" ustida ishlashga va davlat ishlariga bag'ishlagan. Ulug'bekning yana bir matematik asari "Risolai Ulug'bek" deb ataladi va uning 1-nusxasi Hindistonda Aligarx universiteti kutubxonasida saqlanadi, hali o'rganilmagan. Fan va madaniyat tarixida so'nmas iz qoldirgan Ulug'bekning ilmiy merosi uning "Zij"idir. Bu asar sayyoralar, Quyosh va Oy harakatini talqin qilish, yulduzlar katalogi va unda qo'llanilgan matematik usullari bo'yicha o'rta asrlardagi astronomik asarlarning eng mukammali bo'lganligi uchun avvalambor u musulmon mamlakatlaridagi olimlarning diqqatini jalb qilgan. "Zij"ga ilk sharhni Ulug'bekning shogirdi Ali Qushchi "Charhi Ziji Ulug'bek" nomi bilan yozgan. O'sha XV asrning o'zida qohiralik munajjim Shamsiddin Muhammad as-So'fiy al-Misriy "Tashil Ziji Ulug'bek" ("Ulug'bek "Zij"ini osonlashtirish") nomli asar yozib, unda Ulug'bek jadvallarini Qohiraning geografik kengligiga moslashtirdi. Ulug'bek "Zij"iga yozilgan eng mukammal sharh Samarqand ilmiy maktabining eng so'nggi namoyandasini Nizomiddin Abdul Ali ibn Muhammad ibn Husayn Birjandiyning 1523-yil yozib tugatilgan "Sharhi Ziji Ulug'bek" asaridir.

Ulug'bekning nomi Yevropada va umuman G'arb mamlakatlarida buyuk bobosi Amir Temurning shuhrati tufayli ancha ilgari ma'lum bo'lgan. Yevropa Amir Temur va uning oila a'zolari haqida 1-bo'lib Samarqandga 1403-1405-yillar sayohat qilgan Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixodan eshitgan. Klavixoning "Kundaliklar"i 1582-yil Sevilyada va 1607-yil

Parijda nashr etilganidan so‘ng yevropaliklar darhol Amir Temur va uning oila a’zolari bilan qiziqqanlar. Ulug‘bek nomi XVII asr boshidanoq (1601-yildan) Amir Temurga bag‘ishlangan dramatik asarlarda eslatiladi. Bevosita Ulug‘bekka bag‘ishlangan Yevropadagi 1-nashr ingliz astronomi Jon Grivs (1602-52) qalamiga oid. Uning 1648-yil nashr etilgan asarida Ulug‘bek yulduzlar jadvalining bir qismi (98 ta yulduz) ilova qilingan. 1665-yil yana bir ingliz olimi Tomas Xayd (1636-1703) Grivs bilan bog‘lanmagan holda “Zij”dagi yulduzlar jadvalini forsiy va lotincha tarjimada nashr etgan. 1690-yil Gdanskda polyak astronomi Yan Geveliy chop ettirgan “Yulduzlar osmonining atlasi”dagi ikkita gravyurada o‘scha davrning mashhur astronomolari orasidan Ulug‘bekka faxrli o‘rin bergen, unda Ulug‘bekning yulduzlar jadvalini Ptolemey, Tixo Brage, Richchioli, Vilgelm IV va o‘zining jadvallari bilan solishtirgan. 1711-yil Oksfordda Ulug‘bekning geografik jadvali 3-marta nashr etilgan. 1807-yil o‘scha yerda bu jadval yangi grek tilida ham nashr etilgan. 1725-yil ingliz astronomi D. Flemetid (1646-1719) Ulug‘bekning yulduzlar jadvalini Ptolemey, Tixo Brage, Vilgelm IV, Yan Geveliy va o‘zining jadvallari bilan birga nashr etgan. 1908-09-yillar V.L. Vyatkin Ulug‘bek rasadxonasining xarobalarini va uning asosiy asbobi - kvadrantini kavlab topgandan so‘ng, Samarqand olimlarining faoliyatiga yangidan qiziqish boshlanadi. Natijada 1918-yil V. V. Bartoldning “Ulug‘bek va uning davri” asari nashr etilgan. Sovet davrida Ulug‘bekning hayoti va ijodi bilan mamlakat jamoatchiligini tanishtirish bo‘yicha T.N. Qori-Niyoziy ko‘p sa’y-harakat qilgan. Ulug‘bek ijodini targ‘ib qilishda G‘. Jalolov va V. P. Shcheglovlarning nashrlari ham diqqatga sazovordir. XX asrning 80-yillari boshiga kelib Ulug‘bek “Zij”ining to‘liq va mukammal holda, ilmiy izohlar bilan ta’minlangan tarjimasini A. Ahmedov 1994-yil amalgalashirib, nashr ettirdi. Yaqin yillargacha Ulug‘bek faqat astronom va matematik deb hisoblanardi. Lekin XX asr oxirida uning ijodi serqirra bo‘lib, u tarix, she’riyat va musiqa bobida ham qalam tebratgani aniqlandi. Tarixchi Mirzo Muhammad Haydar “Tarixi Rashidiy” asarida “Mirzo Ulug‘bek tarixnavis donishmand (va) “To‘rt ulus” (tarixi)ni (ham) yozib qoldirgan edi”, deb yozgan. Ulug‘bekning turkiyda yozgan “Tarixi arba’ ulus” (“To‘rt ulus tarixi”) asari Chingizzon bosib olgan mamlakatlarning XIII-XIV asrlar 1-yarmidagi siyosiy hayotini o‘rganishda muhim manbadir. Navoiyning “Majolis un-nafois” va Abu Tohirxojaning “Samariya” asarlarida ham uning she’rlaridan namunalar keltirilgan. Uning davrida ko‘pgina asarlar arab va fors tilidan eski o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Ulug‘bek tashkil etgan boy kutubxonada turli fanlarga oid 15 mingdan ortiq jildli kitob bo‘lgan. Ulug‘bek yoshligidan o‘zga fanlar qatori musiqa ilmidan saboq olib, bir qator kuy va usullar yaratgan, bu sohaga oid 5 ta risola ham yozgan. “Risola dar ilmi musiqa” nomli asari musiqa tarixiga bag‘ishlanib, unda “12 maqom bayoni”ga doir maxsus bobi ham bo‘lgan. Ulug‘bek “bulujiy”, “shodiyona”, “axloqiy”, “tabriziy”, “usuli ravon” va “usuli otlig” kuylarini ijod qiladi.

Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi 1994-yil aprelda Parijda, oktabrda Toshkent va Samarqandda tantanali ravishda nishonlandi va xalqaro konferensiyalar o‘tkazildi. Shu yili Toshkentda Ulug‘bekka haykal o‘rnatildi. Ulug‘bek siyoshi Pulkovo rasadxonasi, Moskva universiteti konferens-zallarida dunyodagi mashhur olimlarning portretlari qatoridan joy olgan. Samarqandda Ulug‘bekning memorial muzeyi tashkil etilgan. Toshkentda O‘zbekiston milliy universiteti, tuman, ko‘cha, mahalla, metro stansiyasi, istirohat bog‘i, shaharcha Ulug‘bek nomi bilan ataladi. Farg‘ona pedagogika universitetiga, Samarqand arxitektura-qurilish institutiga, Kitob xalqaro kenglik stansiyasiga, qishloq, maktab va boshqaga Ulug‘bek nomi berilgan. Ulug‘bekning hayoti va faoliyati haqida pesa (M. Shayxzoda, “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi), roman (O. Yoqubov, “Ulug‘bek xazinasi”; S. Borodin, “Samarqand osmonida yulduzlar”), opera (A. Kozlovskiy, “Ulug‘bek”), poema (M. Boboev, “Ulug‘bek”), balet (M. Bafoev, “Ulug‘bek burji”), film (Rej. Latif Fayziyev, “Ulug‘bek yulduzi”, 1965) va boshqa yaratilgan.